

## LANDSHAFTLARNING MORFOLOGIK BIRLIKLARI VA ULARNING TABAQALANISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11474798>

**Xolikov Raximjon Yigitaliyevich**

*professor, Farg'ona davlat universiteti,*

[raximjonyigitalievich@gmail.com](mailto:raximjonyigitalievich@gmail.com) +998975902036

### **Annotatsiya**

*Maqolada landshaftlarning ichki tabaqalanishi, ularning morfologik birliklarini ajratish tamoyillari ko'rsatib berilgan.*

### **Kalit so'zlar**

*landshaft morfologiyasi, ichki tabaqalanish, fatsiya, mikrokompleks, urochishe, joy klassifikatsiyasi.*

## МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ ЛАНДШАФТОВ И ИХ КЛАССИФИКАЦИЯ

### **Аннотация**

*В статье показаны внутреннее дифференциации ландшафтов и деление морфологических частей.*

### **Ключевые слово**

*морфология ландшафтов, внутренняя дифференциация, фация, микрокомплекс, урочище, местность, классификация.*

## LANDSHAFTLARNING MORFOLOGIK BIRLIKLARI VA ULARNING TABAQALANISHI

### **Annotation**

*The article shows the internal differentiation of landscapes and the division of morphological parts.*

### **Keywords**

*Landscape morphology, internal differentiation, facies, micro complex, tract, terrain, classification.*

Landshaftlarning morfologik birliklarini ajratish, ularning ichki tabaqalanishi qonuniyatlarini o'rganish, landshaftning morfologik birliklari o'rtasidagi o'zaro aloqalar, ularning bir-biriga ta'sirini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar landshaftshunoslikda landshaftlar morfologiyasi yo'nalishiga to'g'ri keladi.

Landshaftlarning lokal geotizimlariga bo'linishi, landshaftlar morfologiyasi deyiladi. Landshaftning morfologik tizimini ierarxik jihatdan turli ko'lamdagi landshaft tuzimlilarini tashkil etadi. Tabaqalanish xususiyatlari, qonuniyatlari va taksonomik birliklar tizimini ishlab chiqish esa amaliy landshaftshunoslikning muhim masalalaridan biridir.

Landshaftlar morfologiyasi landshaftlarning ichki hududiy tabaqalanishi qonuniyatlari va landshaftlarning morfologik birliklarini o'zaro aloqalari va uning geokologik oqibatlarini o'rganadi. Landshaftlarning morfologik birliklarini ajratishda va tabaqalashtirishda quyidagi asosiy masalalarga e'tibor qaratilishi zarur:

1. Landshaftlarning morfologik dinamikasida tabiiy geografik jarayonlar;
2. Landshaftlarning morfologik o'zgaruvchi texnogen omillar

Masalan Farg'ona vodiysining adri landshaftlari inson ta'sirida kuchli o'zgargan. Tabiiy yonbag'ir fatsiyalari o'rnida texnogen buzilgan landshaftlar yoki fatsiyalar shakllangan. Ularni karer otval tipidagi landshaftlar deb ataladi. Misollardan ko'rinib turibdiki, tabiiy geografik jarayonlar va inson xo'jalik faoliyati tufayli fatsiyalarni transformatsiyasi ro'y bergan. Fatsiyalardagi bunday o'zgarishlar ularni dinamik, beqaror elementar landshaftlar ekanligini isbotlaydi. Fatsiyalar uzoq vaqt davomida o'zgarishlarsiz qola olmaydi. Shunday bo'lishiga qaramasdan fatsiyalarda sodir bo'ladi o'zgarishlar landshaftlarga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. Aslida fatsiyalardagi yangi elementar landshaftlardagi o'zgarishlar ularning tarkibida yangi morfologik strukturalarning asta-sekin to'planib borishi bilan bog'liqdir. Shunga ko'ra landshaftlar va ularning morfologik birliklaridagi o'zgarishlar bir-biriga mos kelmaydi. Landshaftlarning morfologik birligi sifatida fatsiyalar landshaft ichida organizmning xujayrasi kabi joylashadi. Ularning joylashuvi juda murakkab bo'lib fatsial mozaykalar xosil qiladi. Ularni biz fatsial mikrokomplekslar deb ataymiz. Fatsiyalarning murakkabligi va xilma-xilligi ularni tadqiq qilish, ulardan foydalanishda va fatsiyalarni ekologik xolatini yaxshilashda ularni tabaqalashtirish, tizimlashtirish talab etiladi. Fatsiyalarni tizimlashtirish va klassifikatsiya qilishda V.B.Sochava (197 ), A.A.Krauklislar (1986) tomonidan faktural dinamik fatsial qatorlar qoidasini ishlab chiqdilar. Bunga ko'ra har bir landshaftda fatsiyalarning fonovoy (makoni mavjud) meyor bor deb qaraladi. Garchi fatsiyalar eng kichik elementar birlik bo'lsada ularni barchasi zonal, azonal,

regional, sektorlik, bandlik mintaqalanish qonuniyatlariga bo'ysindi. Fatsiyalarning mezoni ko'pincha ularning substratiga qarab aniqlanadi. Fatsiyalar har qanday tabiiy geografik tadqiqotlarda va statsionar tadqiqotlarda asosiy ob'ekt hisoblanadi. Fatsiyalarning turli tumanligi, murakkab aloqalarga ega ekanligi ularni sistemalashtirishni talab etadi. Bu masalada ham turlicha qarashlar mavjud V.B.Sochava fatsiyalarni klassifikatsiyasi landshaftlarga bo'ysunishi kerak deydi. U fatsiyalarni klassifikatsion tuzilmasida fatsiyalarning bir qancha tartibli tizimini fatsiyalar guruhi va sinfi sifatida e'tirof etadi.

Urochishchelar landshaftlarning morfologik birliklarida ikkinchi pog'onani egallaydi. Urochishchelar fatsiyalar to'plami bo'lib, landshaftlar morfologiyasida (fon - manzara hosil qiluvchi), dominant, subdominant, ikkinchi darajali yoki bo'ysunuvchi bo'lishi mumkin. Ularni murakkab (tipik) urochishchelarga ajratish mumkin. Murakkab urochishchelar hosil bo'lishi uchun esa quyidagi shartlar bajarilishi mumkin:

1. Yirik relyef mezoformalari – masalan: jarliklar, botqoqlashgan kotlovinalar;
2. Relefning bitta mezoformasi bo'lishi mumkin, lekin litologik tarkibi bir xil bo'lmasligi mumkin;
3. Dominant (Hukmron) urochishchelarga ega bo'lishi;
4. Urochishchelarni ikkilamchi, uchlamchi tizimlaridan hosil bo'lishi mumkin, agar birlamchi bo'lsa, unda oddiy urochishche hosil bo'ladi;

Urochishchelarni nomlashda tuproq va o'simlik qoplami muhim omil bo'lmaydi. Ularni ajratishda relyef oldingi o'ringa chiqadi. Lekin urochishchelarni hosil bo'lishida relyef tuproq hosil qiluvchi analik jins va namlanish rejimi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Urochishchelarni yaqqol ko'rinishi relyefning qabariq yoki botiq shakllarida yaqqol ifodalaniladi. Fatsiyalar to'plami urochishchelarni hosil qiladi. Oddiy urochishchelarning hosil bo'lishida relyefning murakkabligi tufayli murakkab urochishchelarni belgilaydi. Masalan Chimyon adirlari yoki Qopchi0ay adirlari, adirlararo botiqliklar bilan birga kuchli parchalangan quruq o'zanlar, shleyflar, ko'ndalang vodiylari murakkab urochishchelarni hosil qiladi. Satkak adirlari geomorfologik tuzilishiga ko'ra yassi, gumbazsimon ko'tarilgan shakliga ega bo'olib, bir muncha o'jddiy urochishchelar hosil bo'lgan.

Urochishchelar fatsiyalar va landshaft o'rtasidagi muhim zveno hisoblanib, ierarxik tizimda oraliq geotizimi vazifasini bajaradi.

Landshaftlar morfologiyasida eng katta birlik sifatida joy (mestnost) hisoblanib, urochishchelar guruhini o'zida birlashtiradi.

Urochishchelar guruhi bir-biriga mos kelganda joyni hosil qiladi. Joy guruhi joy tipini hosil qiladi. Joy – ya'ni mestnost tushunchasi ko'pincha morfologik

birliklarni ajratishda mahalliy tushunchaga o'xshab ketadi. Masalan: adir, soylik, jarlik, vodiy qayir yon bag'ir, sirt kabi joy ko'rinishlari joy tiplarini hosil qiladi. Joy tiplari esa landshaftlarning morfologik birliklari ichida boshqa landshaftlarning hududiy tuzilmalarida ham takrorlanishi mumkin. Lekin boshqa landshaftlarda bir landshaftdagi joy yoki uning tipi aynan o'sha er uchun xos bo'lgan holatda takrorlanishi mumkin. Chunki aynan o'xshash bo'lgan landshatlar va ularning morfologik birliklaridagi dinamik jarayonlar bir xilda kechmaydi.

### Xulosalar

Umuman olganda laendshaftlarning morfologik birliklarini ajratish, ularni tabaqalashtirish morfologik birliklarni o'zaro hosil qilgan hududiy muttonosibligi, muvofiqligi, ular o'rtasidagi vertikal va gorizontal aloqalarning intensivligiga bog'liqdir. Shuning bilan birga muayyan bir tartib asosida yuqoridan quyiga yoki aksincha holatda sodir bo'ladi.

Landshaftlarni morfologik birliklarga ajratishdagi qator qonuniyatlar ichida muvofiqlik, tashqi strukturalar bilan mos kelishi va ichki belgilari bilan ajralib turishi kabi holatlar amal qiladi. Bularga asosan masalan morfoloik birliklarning muayyan geometrik figura (shakl) lar hosil qilishi ularni mozaik muttonosibligini e'tirof etganimiz bilan bir vaqtda ichki aloqalarini ham hisobga olishimiz zarur bo'ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Крауклис А. А. Проблемы экспериментального ландшафтоведения. Минск: 1986, 206 с.
- Сочава В. Б. Введение в учение о геосистемах. Новосибирск: Наука, 1978, 319 с.
- Солнцев В.Н. Системная организация ландшафтов. М., 1981. – 239 с.
- Р.Й Холиков. Некоторые принципы организации ландшафтно-экологических сетей в южной части ферганской долины. Экономика и социум, 690-693, 2021.
- R.Y. Kholikov. The role of climatic factors in the formation of mountain-valley paragenetic landscapes. IMRAS 6 (7)647-654 2023